

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 25 ”- avgustdagi
308-son buyrug‘iga
1-ILOVA

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2025-2026-o‘quv yilida o‘tkaziladigan
ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning
NAMUNAVIY ISH REJASI**

T/r	Tadbir nomi	Guruhlar kesimida	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining ta‘limiy faoliyati mavzulari	Tadbir mazmuni
SENTABR – “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINI MADH ETISH” OYLIGI				
1-hafta				
1.	“O‘zbekiston - mening Vatanim!” haftaligi	Kichik guruh	Mening bog‘cham	“O‘zbekiston - mening Vatanim” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy bayram tadbiri tashkil etiladi. Vatanni ulug‘lovchi kuy-qo‘shiqlar va sahna ko‘rinishlar orqali ijodiy yondashiladi. Bayramda buyuk siymolar, Xo‘ja Nasriddin, Humo qushi obrazlari gavdalandiriladi. Kichik va o‘rta guruh tarbiyalanuvchilari bayram tadbirida tomoshabin sifatida ishtirok etadi. Bayram mazmuni ertalabki davra suhbatlari orqali mustahkamlanadi.
		O‘rta guruh	Men va bolalar bog‘chasi	
		Katta guruh	O‘zbekiston – mening yurtim (Davlat mustaqilligi va davlat ramzlari)	
		Tayyorlov guruh	Mening Vatanim – O‘zbekiston	
2-hafta				
2.	“Mening oilam” haftaligi	Kichik guruh	Men va oilam	Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda “Mening oilam” mavzusida ertalabki davra suhbatlari tashkil etiladi va mavzuni rivojlantiruvchi markazlarda mustahkamlanadi. Tarbiyalanuvchilarga oila a‘zolari bilan ijobiy munosabatda bo‘lish odobi haqida tushunchalar beriladi.
		O‘rta guruh	Mening oila a‘zolarim	
		Katta guruh	Oila qadriyatlari va an‘analari	
		Tayyorlov guruh	Men baxtiyor oila farzandiman	
3-hafta				
3.		Kichik guruh	Mening uyim, mening mahallam	

	“Mening mahallam” haftaligi	Oʻrta guruh	Mening shahrim-qishlogʻim	“Mening mahallam” mavzusida ertalabki davra suhbatini tashkil etiladi, bolalar tugʻilib oʻsgan shahar, mahalla va qishloqlari haqida maʼlumotlar beriladi. Mahalladoshlar orasidagi qoʻshnichilik odoblari, ozodalikka amal qilish, kattalar mehnatini qadrlash kabi qadriyatlar singdiriladi.
		Katta guruh	Jonajon Oʻzbekistonim (14 ta hudud haqida maʼlumot)	
		Tayyorlov guruh	Hududlarning oʻziga xos xususiyatlari va qadriyatlari	
4-hafta				
4.	“Bizning totuv mamlakatimiz” haftaligi	Kichik guruh	Bizning totuv mamlakat	Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda “Bizning totuv mamlakatimiz” mavzusida ertalabki davra suhbatini tashkil etiladi. Millatlararo hamdoʻstlik mavzusidagi rolli oʻyinlar sahnalashtiriladi.
		Oʻrta guruh	Qoʻshni mamlakatlar	
		Katta guruh	Millatlararo hamdoʻstlik	
		Tayyorlov guruh	Dunyo mamlakatlari	
OKTABR “KUZ NEʼMATLARI VA BOYLIKLARI” OYLIGI				
1-hafta				
5.	“Ustozim-oftobim” haftaligi	Kichik guruh	Ob-havo moʻjizalari: Quyoshli, yomgʻirli, shamolli kunlar	Katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan “Ustozim-oftobim!” mavzusida davra suhbatini olib boriladi va mavzu rivojlanish markazlarida mustahkamlanadi. Bolalarni ustozga hurmat koʻrsatish odobiga oʻrgatiladi. “Ustozimga atab” mavzusida bolalar qoʻl ishlari koʻrgazmasi tashkil etiladi.
		Oʻrta guruh	Fasllar va ob-havo hodisalari: Fasllarning oʻzgarishini oʻrganish	
		Katta guruh	Ob-havo holatlari: Bulutlarning paydo boʻlishi (suvning davriy aylanishi)	
		Tayyorlov guruh	Favqulodda ob-havo hodisalari: kuchli shamol, sel oqimlarini yerga taʼsirini oʻrganish	
2-hafta				
6.	“Kuzgi bayramlar” haftaligi	Kichik guruh	Ona tabiat tuhfasini: meva va sabzavotlar	“Oltin kuz” nomli maʼnaviy-maʼrifiy bayram tadbiri tashkil etiladi. Tadbir dasturi bolalar kuy-qoʻshiqlari, sahna koʻrinishlari va didaktik oʻyinlari orqali olib boriladi. Bolalarga meva va sabzavotlarni bir-biridan ajratish hamda ularning salomatlik uchun foydali xususiyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar beriladi.
		Oʻrta guruh	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	
		Katta guruh	Tabiat neʼmatlari – sogʻlom hayot manbai tabiiy vitaminlar.	“Mehrjon” nomli maʼnaviy-maʼrifiy hosil bayram tadbiri tashkil etiladi. Tadbirda dehqon, choʻpon obrazlarini ochib berish orqali

		Tayyorlov guruh	Meva-sabzavotlardan nimalar tayyorlanadi?	bolalarda mehnatni qadrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga e‘tibor qaratiladi.
3-hafta				
7.	“Ona tilim – jonu dilim” haftaligi	Kichik guruh	Non nima?	Katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan “Ona tilim - jonu dilim” nomli ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatini o‘tkaziladi. Bolalarni o‘zbek tilida to‘g‘ri so‘zlashga o‘rgatiladi, til orqali milliy g‘urur tuyg‘usini hosil qilish maqsadida mavzuga oid she‘rlar chellenji tashkil etiladi.
		O‘rta guruh	Nonning turlari	
		Katta guruh	Non qanday tayyorlanadi?	
		Tayyorlov guruh	Non rizq – ro‘zimiz	
4-hafta				
8.	“O‘zbekistonning tabiiy boyliklari” haftaligi	Kichik guruh	Suv – hayot manbai (suv bilan tanishuv)	Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda “O‘zbekistonning tabiiy boyliklari” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatini tashkil etiladi. Tabiiy boyliklarimizning nomlari, ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. Mavzuga oid bolalar qo‘l ishlaridan iborat ko‘rgazma tashkil etiladi.
		O‘rta guruh	O‘zbekistonning boyliklari bilan tanishuv (paxta va bug‘doy)	
		Katta guruh	O‘zbekistonning yer osti boyliklari	
		Tayyorlov guruh	O‘zbekistonning tabiiy boyliklari	
NOYABR “TRANSPORT VA XAVFSIZLIK” OYLIGI				
1-hafta				
9.	“Yo‘l harakati qoidalarini” haftaligi	Kichik guruh	Transport vositalari bilan tanishuv	Tarbiyalanuvchilarga transport, yo‘l harakati qoidalariga amal qilish hamda transportda yurish odobi haqida ko‘rgazmali vositalar va video kontentlar orqali tushunchalar beriladi. Transportda harakatlanish bo‘yicha namunali maydonchalarda amaliy tadbirlar tashkil etiladi.
		O‘rta guruh	Transport turlari: yer, suv, havo va yer osti	
		Katta guruh	Yashil transport va biz	
		Tayyorlov guruh	Transport vositalari – hayotimizda muhim yordamchilar	
2-hafta				
10.	“Ehtiyotkor piyoda!” haftaligi	Kichik guruh	Transportda yurishni o‘rganamiz	Tarbiyalanuvchilarga svetofor haqida ilk tushunchalar singdiriladi.
		O‘rta guruh	Jamoat transporti odobi	
		Katta guruh	Transportda xavfsizlik va madaniyat	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan namunali maydonchalarda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi.
		Tayyorlov guruh	Odobli yo‘lovchi – madaniyatli jamiyat fuqarosi	
3-hafta				

11.	“Vatanimning bayrog‘i!” haftaligi	Kichik guruh	Svetofor bilan tanishuv	Ona yurt bayrog‘i haqida ilk tushunchalar beriladi.
		O‘rta guruh	Yo‘l harakati belgilari	“Vatanimning bayrog‘i!” mavzusi doirasida ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatlari o‘tkaziladi. Ona yurt bayrog‘ining muqaddas ekanligi va unga hurmat ko‘rsatish odobi haqida ko‘nikmalar shakllantiriladi. Tarbiyalanuvchilar orasida mavzuga oid amaliy ishlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi.
		Katta guruh	Piyodalar uchun xavfsizlik qoidalarlari	
		Tayyorlov guruh	Harakat xavfsizligi	
4-hafta				
12.	“Bizning ezgu ishlarimiz” haftaligi	Kichik guruh	Tez yordam va o‘t o‘chirish xizmati bilan tanishuv	“Men odobli bolaman” mavzusida kichik hikoya, she‘rlar, maqol va topishmoqlardan keng foydalanib ma‘naviy-axloqiy davra suhbatlari tashkil etiladi.
		O‘rta guruh	Tabiiy ofat vaqtida xavfsizlik qoidalarlari	
		Katta guruh	Favqulodda holatlarda o‘zini tutish va yordam chaqirish	“Bizning ezgu ishlarimiz” mavzusida pedagoglar interfaol metodlardan, maqol, topishmoq va tez aytishlardan keng foydalanib, ma‘naviy-axloqiy davra suhbatlari tashkil etiladi. Kattaga hurmat – kichikka izzat ko‘rsatish kabi amaliy ishlar bajarish yo‘lga qo‘yiladi. (tashkilot va oila hamkorligida bolalar amaliy ishlar bajarishi va uning natijasini tengdoshlariga so‘zlab berishiga e‘tibor qaratilishi lozim).
		Tayyorlov guruh	Matonatli kasb egalari va favqulodda holatlarda hayotiy ko‘nikmalar	
DEKABR “QISH VA SALOMATLIK” OYLIGI				
1-hafta				
13.	“Mening huquqlarim” haftaligi	Kichik guruh	Nima yaxshi-yu, nima yomon?	“Mening huquqlarim” mavzusi doirasida ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatlari, bolalar faolligida sahna ko‘rinishlari tashkil etiladi. Bolalarda bosh qomusimiz, huquq va majburiyatlar haqida tushunchalar hosil qilinadi. Tayyorlov guruhlarida mavzuga oid chellenjlar o‘tkaziladi.
		O‘rta guruh	Bola huquqlari	
		Katta guruh	Konstitutsiya bizni himoya qiluvchi kitob	
		Tayyorlov guruh	Konstitutsiya olamiga sayohat	
2- hafta				
14.	“Madhiyam-faxrim” haftaligi	Kichik guruh	Qish fasli	O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matni mazmuni haqida tanishtiriladi, madhiya yangraganda eshitish odobi orqali hurmat ko‘rsatishga o‘rgatiladi. Har bir guruh tarbiyalanuvchilari alohida Davlatimiz madhiyasini jo‘r bo‘lib kuylaydi.
		O‘rta guruh	Qish faslida mavsumiy o‘zgarishlar	
		Katta guruh	Qish zavqi	
		Tayyorlov guruh	O‘zbekistonda qish	
3-hafta				

15.	“Kiyinish odobi” haftaligi	Kichik guruh	Mavsumiy kiyimlar haqida tushuncha	Ko‘rgazmali va didaktik vositalardan unumli foydalangan holda bolalarda kiyinish odobi haqida axloqiy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bolalarni tarbiyachi-pedagog yordamida o‘z-o‘ziga xizmat qilishga odatlantiriladi. “Kiyinish odobi” mavzusi doirasida ma’naviy-ma’rifiy davra suhbatlari tashkil etiladi. “Syujetli-rolli va sahnalashtirish” markazida milliy qadriyatlarimizga xos kiyinish madaniyatiga o‘rgatadigan hikoyalar sahnalashtiriladi.
		O‘rta guruh	Qishda qanday kiyinish kerak?	
		Katta guruh	Mavsumiy kiyim, bosh kiyim va oyoq kiyimlar	
		Tayyorlov guruh	Ob-havoga qarab kiyinish madaniyati va sog‘liqni asrash	
4-hafta				
16.	“Yangi yil mo‘jizalari” haftaligi	Kichik guruh	Yangi yil bayrami haqida tushuncha	“Yangi yil mo‘jizalari” nomli bayram tadbiri tashkil etiladi. Bayram tadbiri mazmunida ertak qahramonlarning ezguliklari ochib berilishi tavsiya etiladi. “Yangi yilim – yaxshi yilim!” nomli bayram tadbiri tashkil etiladi. Bolalar kelajak orzularini tuzish va ularni tengdoshlariga so‘zlab berishini beriladi.
		O‘rta guruh	Yangi yil bayrami kelmoqda	
		Katta guruh	Yangi yil shukhi	
		Tayyorlov guruh	Yangi yil qayerda qanday nishonlanadi?	
YANVAR – “O‘ZIMNI ANGLAYMAN VA O‘ZIMGA G‘AMXO‘RLIK QILAMAN” OYLIGI				
1-hafta				
17.	“Ertaklar yaxshilikka yetaklar” haftaligi	Kichik guruh	Qishki o‘yinlar haqida tushuncha	Bolalarda ertaklar vositasida, -ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi; -ertaklardagi yaxshi qahramon obrazlari orqali yaxshilik ulashuvchanlik fazilatlariga o‘rgatiladi; -yaxshilik va yomonlik sifatlarini qanday amaliy ishlarda namoyon bo‘lishi tushuntiriladi.
		O‘rta guruh	Qor, muz, ko‘ngilochar va sport o‘yinlari	
		Katta guruh	Qishki sport o‘yinlari	
		Tayyorlov guruh	Qishki sport o‘yinlari: sport va jamoaviy faoliyat	
2 -hafta				
18.	“Men ham askar bo‘laman!” haftaligi	Kichik guruh	Askarlar bizni himoya qiladi	“Men ham askar bo‘laman!” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy bayram tadbiri tashkil etiladi. Tadbirda kichik va o‘rta guruh tarbiyalanuvchilari tomoshabin sifatida ishtirok etishi tavsiya etiladi.
		O‘rta guruh	Vatanimiz qo‘riqchilari	
		Katta guruh	Vatan- biz uchun muqaddas, himoyasi sharaf	
		Tayyorlov guruh	Jasorat – yurt himoyasining timsoli	

3- hafta				
19.	“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz!” haftaligi	Kichik guruh	Men va mening tanam haqida tushunchalar	Tarbiyalanuvchilarning “Ilk qadam” mavzuli rejalashtirishga oid ta‘limiy- tarbiyaviy ishlar tashkil etiladi: -tana a‘zolari haqida bilimlarini mustahkamlash; -bajaradigan vazifalari haqida tushunchalar berish; -tana a‘zolarini ozoda tutish odobiga o‘rgatish. “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy ertalabki davra suhbatini tashkil etiladi. Bolalarga kattalar tomonidan yetkazilgan ruhiy va jismoniy bosimga qarshi, begona shaxslar bilan muloqotga kirishmaslikka doir ko‘rsatmalar beriladi.
		O‘rta guruh	Tana a‘zolarim va ularning vazifalari	
		Katta guruh	Tana a‘zolari: mushaklar, suyaklar va harakatlar haqida	
		Tayyorlov guruh	Tanamni tushunaman va asrayman (tuzilish, gigiyena, xavfsizlik)	
4- hafta				
20.	“Tozalik - bu salomatlik” haftaligi	Kichik guruh	Sog‘lom bo‘lishni xohlayman	“Tozalik - bu salomatlik” haftaligi doirasida amaliy vazifalar taqsimlab beriladi. Tozalik va tartibga amal qilishda namuna ko‘rsatgan bolalar “Tozalik posbonlari” degan nom bilan atalib, tengdoshlari orasida e‘tirof etiladi.
		O‘rta guruh	Tozalik - sog‘lik garovi	
		Katta guruh	Sog‘ tanda sog‘ aql, gigiyena va dam olish	
		Tayyorlov guruh	Sog‘lom turmush tarzi va sport turlari	
FEVRAL – “ODOB, BILIM VA ZAMONAVIY KO‘NIKMALAR SARI” OYLI				
1- hafta				
21.	“Mening do‘stlarim” haftaligi	Kichik guruh	Do‘stlik – eng katta boylik	“Mening do‘stlarim” mavzusi bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ertalabki davra suhbatini tashkil etiladi va “Syujetli-rolli o‘yinlarni sahnalashtirish” rivojlanish markazida “Ikki do‘st” nomli ertak sahnalashtiriladi.
		O‘rta guruh	Do‘stlar bilan o‘ynaymiz	
		Katta guruh	Do‘stlik va mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik timsoli	
		Tayyorlov guruh	Do‘stlik va mehmondorchilik madaniyati	
2- hafta				
22.	“Buyuk ajdodlarimiz” haftaligi	Kichik guruh	Ertaklar yaxshilikka yetaklar	Tarbiyalanuvchilar bilan “Buyuk ajdodlarimiz” mavzusi bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ertalabki davra suhbatini tashkil etiladi. Mavzu bo‘yicha “Alisher va mehmon chumoli”, “Dovyurak Alisher”, “Qovun isi” hikoyalari sahnalashtiriladi.Davra suhbatida AKT, didaktik vositalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi.
		O‘rta guruh	Mening birinchi kitobim	
		Katta guruh	Kitobim- oftobim	
		Tayyorlov guruh	Kitob tarixi va inson	
3- hafta				

23.	“Xushmuomilalik odoblari” haftaligi	Kichik guruh	Xushmuomalalik haqida tushuncha	Tarbiyalanuvchilarda salomlashish va soʻzlashish odobiga oid koʻnikmalar hosil qilinadi. “Til va nutq” rivojlantirish markazida mavzuga oid sheʼr, topishmoq, maqollar yodlatish orqali bolalarning soʻz boyliklari oshiriladi. Davra suhbat mazmuni hafta davomida bajariladigan salomlashish va soʻzlashish odobiga oid amaliy ishlar orqali mustahkamlanadi.
		Oʻrta guruh	Xushmuomalalik odoblari	
		Katta guruh	Odob, muomala va jamoa madaniyati – “Men odobli bolaman”	
		Tayyorlov guruh	Muloqot alifbosi (muomala va oʻzini tutish madaniyati)	
4-hafta				
24.	“Bizning xulqimiz” haftaligi	Kichik guruh	Rost soʻzni ayt, yolgʻon soʻzdan qayt	“Bizning xulqimiz” mavzusida maʼnaviy-maʼrifiy davra suhbat tashkil etiladi. Davra suhbat mazmuni hafta davomida bajariladigan amaliy ishlar orqali mustahkamlanadi.
		Oʻrta guruh	Rostni aytgan – hurmat topgan	
		Katta guruh	Rostgoʻylik – halollik yoʻli	
		Tayyorlov guruh	Halollik va rostgoʻylik – eng oliy fazilat	
MART – “BAHOR NAFASI VA URF-ODATLAR” OYLIGI				
1 -hafta				
25.	“Onajonlar kuni” haftaligi	Kichik guruh	Onajonim bayrami	Turli yosh guruhlarida “Onajonlar kuni” maʼnaviy-maʼrifiy bayram tadbirini oʻtkaziladi.Bayram tadbiri doirasiga “Onamga atab” nomli bolalar qoʻl ishlaridan iborat koʻrgazma tashkil etiladi.
		Oʻrta guruh	Onajonim mehribonlik timsoli	
		Katta guruh	Onalarga ehtirom	
		Tayyorlov guruh	Xalqaro xotin-qizlar bayrami	
2- hafta				
26.	“Mening yutuqlarim” haftaligi	Kichik guruh	Daraxt, gul va barg	Tarbiyalanuvchilarga bahor faslining havosi, oʻzgarishlari yomgʻir yogʻishi, jala haqida tushuncha, kamalak chiqishi, daraxtlar gullashi, qushlarning qaytishi haqida maʼlumotlar berish va bahor tarovatini kuzatishga oʻrgatish. Mavzuga oid maʼlumotlarni sheʼrlar, topishmoqlar, ertaklar, hikoyalar orqali mustahkamlash.
		Oʻrta guruh	Bahorgi oʻzgarishlar va kamalakning paydo boʻlishi	
		Katta guruh	Oʻsimliklar olami va tabiat goʻzalligi	
		Tayyorlov guruh	Tabiat – hayot manbai: asrash, qadrlash, kuzatish	“Mening yutuqlarim” mavzusida maʼnaviy-maʼrifiy davra suhbat oʻtkaziladi. Tarbiyalanuvchilarning tashkilotda nimalarni oʻrganayotganligi va qanday axloqiy sifatleri shakllanayotganligini soʻzlab berishiga eʼtibor qaratiladi.

				Bolalarning kichik yutuqlarini ham eʻtirof etish va taqdirlash kabi amaliy ishlar tashkil etiladi.
3-hafta				
27.	“Navroʻzi olam” haftaligi	Kichik guruh	Navroʻzni nishonlaymiz (varrak uchiramiz)	“Navroʻzi olam” umummilliy bayram saylini oʻtkaziladi. Mazkur tadbirga kichik va oʻrta guruh tarbiyalanuvchilari tomoshabin sifatida taklif qilinadi.
		Oʻrta guruh	Navroʻz odatlari bilan tanishamiz (Sumalak tarixi)	
		Katta guruh	Navroʻz – qadimiy xalq bayrami	
		Tayyorlov guruh	Navroʻz – umumbashariy bayram (xalq sarchashmalari)	
4-hafta				
28.	“Milliy xalq oʻyinlari” haftaligi	Kichik guruh	Hasharotlar haqida tushuncha	Tarbiyalanuvchilar ishtirokida milliy xalq oʻyinlari va varrak sayllari tashkil etiladi. Mazkur tadbirga kichik va oʻrta guruh tarbiyalanuvchilari tomoshabin sifatida taklif qilinadi.
		Oʻrta guruh	Foydali va zararli hasharotlar	
		Katta guruh	Hasharotlarning tabiatdagi oʻrni va ahamiyati	
		Tayyorlov guruh	Hasharotlarning hayoti	
APREL – “YER SAYYORASI VA EKOLOGIYA” OYLIGI				
1-hafta				
29.	“Milliy liboslar” haftaligi	Kichik guruh	Uy va yovvoyi hayvonlar haqida tushuncha	“Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi hafta mavzusi boʻyicha taʻlimiy-tarbiyaviy faoliyat tashkil etiladi.
		Oʻrta guruh	Qaysi hayvon qayerda yashaydi?	
		Katta guruh	Hayvonlarning tabiatdagi oʻrni	Tarbiyalanuvchilar va tashkilot xodimlari ishtirokida “ Milliy liboslar ” mavzusida chellenj oʻtkaziladi.
		Tayyorlov guruh	Hayvonot olamining xilma-xilligi	
2-hafta				
30.	“Bizning Temur bobomiz” haftaligi	Kichik guruh	Kun va tun	“ Bizning Temur bobomiz ” mavzusida maʼnaviy-maʼrifiy davra suhbatlari tashkil etiladi va mavzu “Syujetli-rolli va sahnalashtirish” markazida mustahkamlanadi. Amir Temur siymosida mardlik, jasurlik, toʻgʻri soʻzlik, adolatsevarlik kabi fazilatlari bolalarga namuna sifatida oʻrgatiladi.
		Oʻrta guruh	Quyosh, oy va yulduzlar	
		Katta guruh	Sayyoralar va ularning oʻziga xosligi	
		Tayyorlov guruh	Koinot – sirli olam	
3-hafta				
31.	“Mehnatsevar bolalar”	Kichik guruh	Yer men yashaydigan sayyora	Tarbiyalanuvchilar bilan kattalar mehnat faoliyatini kuzatish hamda ularning yordami bilan turli yumushlarni birgalikda
		Oʻrta guruh	Yer sayyorasi umumiy uyimiz	

	haftaligi	Katta guruh	Yer sayyoramizni asraymiz	bajarish kabi amaliy ishlar tashkil etiladi. Bolalarga Ona sayyorani asrash va gullab yashnatishda insonning roli haqida tushunchalar beriladi.
		Tayyorlov guruh	Yer sayyorasi kuni – xalqaro ekologik kun	
4-hafta				
32.	“Kasblar olamiga sayohat” haftaligi	Kichik guruh	Tabiatni asrab avaylaylik	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hafta mavzusi bo‘yicha ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyat tashkil etiladi va mavzu mazmuni rivojlantiruvchi markazlarda mustahkamlanadi.
		O‘rta guruh	Tabiat tozaligiga rioya qilamiz	
		Katta guruh	Chiqindilarni saralaymiz	“Kasblar olamiga sayohat” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatini tashkil etiladi. Davra suhbatida tarbiyalanuvchilarga turli kasblar haqida tushunchalar berish maqsadida AKT, didaktik vositalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Mavzu bo‘yicha ochiq eshiklar kuni o‘tkaziladi.
		Tayyorlov guruh	Ekologik mas‘uliyat va yashil kelajak	
MAY – “XOTIRA VA QADRLASH” OYLIGI				
1-hafta				
33.	“Xotira va qadrlash” haftaligi	Kichik guruh	Uyda ishlatiladigan buyumlar bilan tanishamiz (mebel)	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hafta mavzusi bo‘yicha ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyat tashkil etiladi va mavzu mazmuni rivojlantiruvchi markazlarda mustahkamlanadi.
		O‘rta guruh	Uyimdagi buyumlar. Uyimizdagi kundalik buyumlar va ularning foydasi (mebel)	
		Katta guruh	Yordamchi uy jihozlari va ularning vazifalari (mebel)	“Xotira va qadrlash” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatini tashkil etiladi. Tarbiyachi-pedagog tomonidan mavzuni amaliy ishlar bilan mustahkamlash maqsadida “Keksalarni e‘zozlaymiz!” shiori ostida uch avlod uchrashuvlari tashkil etiladi. <i>(bolalar buvi va buvalarini ko‘rgani borishadi va taassurotlarini tengdoshlariga so‘zlab berishadi)</i>
		Tayyorlov guruh	Uy buyumlarini yasovchi ustalar va ularning kasbi	
2-hafta				
34.	“Milliy san‘at va hunarmandchilik” haftaligi	Kichik guruh	Stol, kursi, yotoqxona mebeli, oshxona buyumlari va maishiy texnika bilan tanishuv	“Milliy san‘at va hunarmandchilik” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy davra suhbatini tashkil etiladi. Davra suhbatini orqali tarbiyalanuvchilarga milliy hunarmandchilik namunalarini tanishtiriladi, ularning qanday yasalishi haqida tushunchalar beriladi. Tashkilot va oila hamkorligida milliy hunarmandchilik yarmarkasini o‘tkaziladi. Bolalar oila a‘zolari bilan hamkorlikda qo‘l ishlarini yasab kelishi va ko‘rgazmaga taqdim etishga e‘tibor qaratiladi.
		O‘rta guruh	Idishlar va maishiy texnikadan foydalanishni o‘rganamiz	
		Katta guruh	Maishiy texnika: vazifasi va xavfsiz foydalanish qoidalari	
		Tayyorlov guruh	Zamonaviy maishiy texnika — qulay hayot yordamchisi	

3-hafta				
35.	“Gadgetlar va men” haftaligi	Kichik guruh	Kundalik texnologiyalar: Telefon, kamera va televizorlar	“Gadgetlar va men” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy davra suhbatlari tashkil etiladi. Mavzu yuzasidan bolalarga gadgetlardan foydalanishning madaniyati, ulardan tartibsiz foydalanishning salomatlik uchun zararli oqibatlar keltirishi haqida tushunchalar beriladi. Davra suhbatida ko’rgazmali vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi.
		O’rta guruh	Kompyuter va planshet – bilim olishda yordamchi	
		Katta guruh	Kundalik hayotdagi qurilmalar: Smartfonlar, gadgetlarni ishlatishning foyda va zararlari	
		Tayyorlov guruh	Axborot olami: texnologiyalar bilan to’g’ri muloqot	
4-hafta				
36.	“Xayr bog‘cha, Salom maktab!” haftaligi	Kichik guruh	O‘yinchoqlarimni tartibga keltiraman	1-iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish” kuni munosabati bilan “Yangi O‘zbekistonning baxtiyor bolalari” shiori ostida musiqiy bayram dasturi tashkil etiladi.
		O’rta guruh	Uy ishlarida men ham ishtirok etaman	
		Katta guruh	Uyimni toza saqlashda men ham yordamchiman	
		Tayyorlov guruh	Uy ishlarini hamjihatlik bilan bajaramiz	“Xayr bog‘cha, Salom maktab” nomli musiqiy bayram dasturi tashkil etiladi.

Izoh: Yuqorida qayd etilgan tadbirlar guruhlar kesimida bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Shu bilan birga, yozgi sog‘lomlashtirish davrida ko‘ngilochar va sport o‘yinlarini tashkil etish hamda mazkur tadbirlarni mustahkamlash tavsiya etiladi.